

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI
TIBBIYOT INSTITUTI
XALQ TABOBATI VA
FARMAKOLOGIYA KAFEDRASI
ASSISTENTI
G‘ANIYEVA MAFTUNA
RAQIBOYEVNANING
“MODULLI O‘QITISH TIZIMI VA
UNING TA‘LIM SIFATINI
OSHIRISHDAGI O‘RNI HAMDA
AHAMIYATI”
(MONOGRAFIYA)**

Farg‘ona 2025

Mundarija

I-BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYALARINING DOLZARBLIGI	6
1.1. O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish yo'llari	10
II BOB. O'QITISH JARAYONIDA MODULLI JORIY ETISH INNOVATSION TEXNOLOGIYASI..	18
2.1. Ta'lim jarayonida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish mexanizmlari.....	22
2.2. Modulli o'qitish texnologiyasini joriy etish muammolari.....	31
3. KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIM ASOSLARI	41
XULOSALAR VA TAVSIYALAR	57

KIRISH

Monografiya mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda modulli o'qitish oliy ta'lim tizimida keng tatbiq qilinmoqda. Modulli o'qitish jarayonida muayyan pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Biroq mazkur texnologiyalarni saralash, ulardan modulli o'qitish jarayonida fanlar kesimida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogikada o'z yechimini kutayotgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Modulli ta'lim bir qator g'oyalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Ular: talabalar mustaqil tarzda bilimlarni o'zlashtirishlari, o'rganishlari, o'qituvchi esa ularning o'quv faoliyatini boshqarishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchi talabalarni o'quv faoliyatigayo'naltirishi, ularda mazkur faoliyatga nisbatan moyillikni hosil qilishi, ularning o'quv faoliyatini tashkil etishi, muvofiqlashtirishi va maslahatlar berishi kerak. Ushbu texnologiya pedagogika nazariyasi va amaliyotida to'plangan barcha ilg'or tajribalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Hozirgi zamon sharoitida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Yangi pedagogik texnologiyalarni muhim bir xislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayonini rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg'ulotning muvoffaqiyatli o'tishining 80% ta'lim tizimini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir. Kelajakda ta'lim taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch sifatida innovatsion ta'lim pedagog faoliyatini yangilash, ta'lim-tarbiya jarayonini maqbul qurishga, talaba yoshlarda hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogning bosh vazifasi talabalarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat ekanligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz. Shuning uchun ham, bugungi kunda oliy ta'limda talabalarning o'quv-biluv faoliyatlarini ta'minlovchi va rivojlantiruvchi faol ta'lim usullarini o'quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Talabalarni mustaqil va ijodiy yondoshgan holda muammolarni yechimini izlash, topish va mustaqil qaror qabul qilish

qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faol ta'lim usullaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayonida pedagog faoliyati va talaba faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Shuning uchun ham zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylanmoqda.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, talabalarda bilimga ishtiyoq va qiziqishlarni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Shu sabab ham, bugungi kunda ta'lim tizimimizda innovatsion pedagogik texnologiyalar faol qo'llanilib kelinmoqda, ayni vaqtda bu o'quv jarayonning yangicha ruhda shakllanishiga keng imkoniyat yaratib bermoqda.

Monografiyaning maqsadi. Modulli o'qitish tizimi va uning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni hamda ahamiyati tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- 1.Oliy ta'lim muassasalarida modulli o'qitish texnologiyalarining dolzarbligini asoslash
- 2.Oliy ta'lim muassasalarida modulli o'qitishning o'ziga xosligi uning boshqa o'qitish tizimlaridan farqini ochib berish
3. Modulli o'qitish tizimining ustunliklarini tahlil qilish

Tadqiqot predmeti va obyekti:

Tadqiqot predmeti va obyekti modul tizimi va uni o'rganish, tahlil qilish

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

Modulli o'qitish o'quv materiallarining qat'iy tuzilmaga ega bo'lishi, o'qitish mazmuni va talabalarning ishlarini tashkil qilish mantiqiy yakunlangan o'quv bloklari to'liq o'z ichiga olishi kerak.

Modul o'quv predmetining mavzusiga mos keladi, biroq modulda mavzulardan farqli o'laroq, hamma narsa o'lchanadi, hamma narsa baholanadi: topshiriq, ish, darsga qatnash, boshlang'ich, oraliq va yakuniy daraja.

Modulda o'quv maqsadlari, vazifalari va ushbu fanni o'rganish darajalari, ko'nikmalari va malakalari aniq belgilanadi.

Modulli o'qitishda hamma narsa oldindan dasturlashtirilgan: nafaqat o'quv materialini o'rganish ketma-ketligi, balki uning o'zlashtirish darajasi va o'zlashtirish sifatini nazorat qilish lozim.

Modulli o'qitish texnologiyasini joriy etish jarayonida milliy ta'lim tizimining asl holati va o'ziga xos xususiyatlarini, uning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olish va bu texnologiyaning ushbu tizimda samarali ishlashiga sharoit yaratish kerak.

Kutiladigan natijalar:

- talabalarning bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish muammolari nazariy jihatdan o'rganilib, tavsiyalar ishlab chiqish;

- Fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda, hamda mustaqil ta'limni tashkil etishda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida modulli o'qitish tizimi o'quv jarayoniga tadbiq etiladi.

I-BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYALARINING DOLZARBLIGI

Bugungi kunda modulli o'qitish oliy ta'lim tizimida keng tatbiq qilinmoqda. Modulli o'qitish jarayonida muayyan pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Biroq mazkur texnologiyalarni saralash, ulardan modulli o'qitish jarayonida fanlar kesimida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogikada o'z yechimini kutayotgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Modulli ta'lim bir qator g'oyalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Ular: talabalar mustaqil tarzda bilimlarni o'zlashtirishlari, o'rganishlari, o'qituvchi esa ularning o'quv faoliyatini boshqarishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchi talabalarni o'quv faoliyatiga yo'naltirishi, ularda mazkur faoliyatga nisbatan moyillikni hosil qilishi, ularning o'quv faoliyatini tashkil etishi, muvofiqlashtirishi va maslahatlar berishi kerak. Ushbu texnologiya pedagogika nazariyasi va amaliyotida to'plangan barcha ilg'or tajribalarni o'zida mujassamlashtiradi. Modulli o'qitish texnologiyasi – funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi,

pedagogik psixologiyaning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

Odatda modul 3-6 soatli ma'ruzaviy mashg'ulotlar va shu bilan bog'liq bo'lgan amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi.

Fanning tushuntiruv apparatining qat'iy tizimli (ko'p qirrali) tahlili asosida eng samarali modul tuziladi. Bu esa fundamental iboralar guruhini ajratish, materialni mantiqan va ixcham guruhlash imkoniyatini beradi. Modul – mustaqil tarkibiy birlik bo'lgani uchun, ba'zi hollarda, alohida talabalarga fanni to'laligacha emas, balki faqatgina bir qator modullarini tinglash imkoniyatini beradi. Bu esa iqtidorli talabalarning individual va mustaqil ishlarini optimal rejalash imkoniyatini tug'diradi.

Modulli o'qitishda o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali o'qitishni tabaqalash imkoniyati yaratiladi, ya'ni o'qitishni individualashtirish mumkin bo'ladi.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi: o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash, o'qitishni individuallashtirish, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirish

uchun yetarli sharoit yaratish, o'qitishni jadallashtirish, fanni samarali o'zlashtirishga erishish olib keladi.

Shunday qilib, modulli o'qitishda talabalarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

– o'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;

- professor-o‘qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- ko‘zlangan natijalarni baholash;
- didaktik materiallar ishlab chiqish;
- natijalarning tahlili va modullarni optimallashtirish.

Shuni unutmazlik lozimki, modulli o‘qitish jarayonida talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etishning barcha shakllari, usullari, metodlari, texnologiyalari juda yaxshi qorishib ketadi. Jumladan, talabalar bilan

yakkama-yakka ishlash, juftliklarda ishlash, guruh bo‘lib hamkorlikda ishlash usullari kabilar.

Oliy ta’lim muassasalarida modulli o‘qitishning o‘ziga xosligi uning boshqa o‘qitish tizimlaridan farqini namoyon qilishidadir.

Ular:

1. O‘quv jarayonining mazmuni yakunlangan mustaqil bloklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur mazmunni o‘zlashtirish ta’lim maqsadiga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Didaktik maqsadlar talabalar uchun shakllantirilib, nafaqat o‘zlashtiriladigan o‘quv materiallari ko‘lami, balki uni o‘zlashtirish

darajasini ham belgilab beradi. Shu bilan bir qatorda har bir talaba o‘qituvchi tomonidan qay darajada unumli harakat qilish, zarur o‘quv materiallarini qayerdan topish haqida yozma shaklda ko‘rsatma oladi.

2. Talaba hamda o‘qituvchi orasidagi muloqotning shakli o‘zgaradi. U modul hamda shaxsiy individual muloqot shaklida amalga oshadi. Aynan modullar o‘quv-tarbiya jarayonini subyekt-subyekt munosabatlari asosida tashkil etish imkonini beradi.

3. Talaba o‘quv jarayonining aksariyat qismida mustaqil ishlaydi. Ular o‘z faoliyatlarini rejalashtirish, mustaqil tashkil etish, nazorat qilish va baholashga o‘rganadilar. Bu esa talabaga mazkur faoliyat jarayonida o‘z-o‘zini anglash imkonini beradi. Ular o‘zlashtirgan bilimlari darajasini mustaqil aniqlaydilar, o‘z bilim, ko‘nikmalari orasidagi bo‘shliqni ko‘ra oladilar. O‘qituvchi ham talabalarning o‘quv-biluv faoliyatlarini modulli boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Muhimi, ushbu boshqaruv muayyan maqsadga yo‘naltiriladi. Buning uchun pedagoglar ta’lim texnologiyalaridan maqsadga muvofiq tarzda modulli foydalanish tajribasiga ega bo‘lishlari kerak.

4. Yozma tarzdagi aniq modullar o‘qituvchilarga talabalar faoliyatini individuallashtirish imkonini beradi. Bu o‘rinda yakka tartibdagi maslahatlar berish, yordam ko‘lamini kengaytirish masalasi nazarda tutilmaydi. Buning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchilar modulli dasturga ega bo‘lishlari kerak. Ushbu

dastur mujassamlashgan didaktik maqsadlar va modullar majmuidan iborat bo'lishi lozim.

Mazkur modullar qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlashga xizmat qilishi zarur. Bunday dasturni tuzish uchun oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari o'quv kursining asosiy ilmiy g'oyalarini ajrata olishi kerak. Shundan keyingina o'quv mazmuni va o'quv bloklarini mazkur g'oya atrofida tarkiblashtirish talab etiladi. Shu asosda mujassamlashgan didaktik maqsad shakllantiriladi.

Didaktik maqsad o'zining ikkita darajasiga ega: talabalarning o'quv materiallarini o'zlashtirishlari va o'zlashtirilgan bilimlardan kelgusidagi amaliy faoliyatlarida to'g'ri foydalana olishlari.

Shuningdek, istiqboldagi o'quv materiallarini o'zlashtirish ham nazarda tutiladi. Dastur o'z nomiga ega bo'lishi kerak. Shundan keyingina mujassamlashgan didaktik maqsaddan integrallashgan didaktik maqsad

ajratiladi hamda modullar shakllantiriladi. Chunki har bir modul o'zining integrallashgan didaktik maqsadiga ega bo'ladi. Mazkur maqsadlarning yechimlari yig'indisi mujassamlashgan didaktik maqsadlarga erishishni ta'minlaydi. Modul tarkibiga ta'lim mazmunining yirik bloklari kiritiladi. Shuning uchun ham har bir uyg'unlashgan didaktik maqsad xususiy didaktik maqsadlarga bo'linadi. Ular negizida o'quv elementlari ajratiladi. Har bir xususiy didaktik maqsad bitta o'quv elementiga muvofiq keladi. Natijada esa maqsadlar daraxti shakllantiriladi. Mazkur daraxt:

- a) yuqori qatlam – modulli dastur uchun mujassamlashgan didaktik maqsad;
- b) o'rta qatlam – modul qurish uchun zarur bo'lgan integrallashgan didaktik maqsad;
- v) quyi qatlam – o'quv elementlarini qurish uchun zarur bo'ladigan xususiy didaktik maqsadlardan iborat bo'ladi.

Modul o'z ichiga 2-3 ma'ruza va shu ma'ruzalar bilan bog'liq bo'lgan amaliy darslar hamda laboratoriya ishlarini qamrab olishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv-metodik majmualari moduli bo'yicha quyidagi o'quv materiallari tayyorlanadi:

1. Sillabus.
2. Modulni o'zlashtirishdan maqsad.
3. Modul bilan ishlash uchun metodik tavsiyalar.
4. Nazariy axborot banki va tayanch tushunchalar.
5. Seminar, amaliy va laboratoriya ishlarining mazmuni, topshiriqlar va ularni bajarishga yordam beruvchi tavsiyalar.
6. Joriy nazorat topshiriqlari.
7. Individual holda bajariladigan mustaqil topshiriqlar.

8. Talabalarning bilimini nazorat qilish uchun testlar (nostardart testlar).

9. O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar.

10. Talaba yig‘ishi mumkin bo‘lgan reyting ballari.

Har bir modul test-sinovlari bilan tugallanishi lozim: joriy modul uchun bu o‘tilgan materialning nazorati bo‘lsa, keyingi modul uchun esa kirish (boshlang‘ich) nazorati bo‘ladi.

Har qaysi modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar to‘plami tuziladi va ular talabaga mashg‘ulotdan oldin beriladi.

Modul tavsiya qilinadigan adabiyotlar bilan ta‘minlanadi. Har bir talaba materiallarni o‘zlashtira borib, bir moduldan ikkinchi modulga o‘tadi. Iqtidorli talabalar boshqalarga bog‘liq bo‘lmasdan test sinovlaridan o‘tishlari mumkin.

Modulli o‘qitish fanning asosiy masalalari bo‘yicha umumlashtirilgan axborotlar beruvchi muammoli va yo‘riqli ma‘ruzalar o‘qilishini taqozo etadi. Ma‘ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim.

Modulning amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari ma‘ruzalar bilan birga tuziladi, ular ma‘ruzalar mazmunini o‘rganiladigan yangi material bilan to‘ldiradi. Talabalar ma‘lum amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Ma‘ruzalar matnini tayyorlashda, strukturalash va tizimlash usullarini qo‘llab, materiallarning blok-sxema, rasmlar bloki ko‘rinishida taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda materialning o‘zlashtirish samaradorligi oshadi, chunki:

- modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;
- o‘quv materialining elementlari orasidagi bog‘lanishlar va uning o‘tishlari yaqqol ko‘rsatiladi;
- o‘quv materiali (modul)ning butun hajmi talabaning ko‘z oldida gavdalanadi.

Modul tizimida o‘quv materialining mazmunini strukturalashda eng avvalo axborotni ixchamlashtirish vazifasi ko‘zlanadi.

Bilimlarning to‘la foydalanish uchun qulay holda taqdim etilishiga harakat qilish lozim.

O‘quv axboroti bir vaqtning o‘zida 4 xil rasmlı, sonlı, belgili va og‘zaki ko‘rinishda uzatilganida eng mustahkam o‘zlashtirishga erishiladi.

Har qaysi modul bo‘yicha rasmlar bloklarida belgili alomatları (savollar qo‘yilishi tarzida) joylashtirish, savollarni rasm tarzida tasvirlash, formulalar, jadvallar, grafiklar va uslubiy ko‘rsatmalarni taqdim etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Rasmlar bloki, sxemalar bloki va boshqa suratli (ko‘rgazmalı) materiallar talabalar uchun tarqatma material vazifasini ham bajaradi.

Shu bilan bir qatorda har bir fan, jumladan, modul uchun atamalarning izohli lug'atini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rasmlar bloki, sxemalar bloki va boshqa suratli (ko'rgazmali) materiallar talabalar uchun tarqatma material vazifasini ham bajaradi.

Shu bilan bir qatorda har bir fan, jumladan, modul uchun atamalarning izohli lug'atini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarni qo'llash lozim: aqliy hujum, muammoli muloqotlar, evristik suhbatlar, o'quv o'yinlar, o'quv loyihalar, savolli va topshiriqli keyslar va h.k.

Modulli o'qitish tizimining quyidagi ustunliklari namoyon bo'ladi:

- fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanadi;
- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayoni barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rgatiladi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslashuvchanligi ta'minlanadi;
- talabalar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat qilinadi;
- talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi amalga oshadi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);

• axborotni ixchamlashtirish natijasida o'qitish jarayoni jadallashadi va o'quv vaqti tarkibi, ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar optimallashtadi

NATIJA= BILIM + KO'NIKMA

Modulli o'qitish sharoitida bu shu bilan ta'minlanadiki, talabalar o'z vaqtlarining katta qismida mustaqil ishlaydilar. Talaba maqsad qo'yish, o'z faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish va baholashni o'rganadi. Natijada har bir kishi o'zining bilim va ko'nikmalaridagi mavjud kamchiliklarni ko'rishi mumkin bo'ladi

1.1. O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish yo'llari

Jamiyat ijtimoiy hayotida yetakchi o'rin tutgan g'oya va qarashlar iqtisodiy ishlab chiqarish rivojiga o'z ta'sirini o'tkazsa, o'z navbatida iqtisodiy o'sish aholi madaniy turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi. Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini o'ta qat'iy hamda murakkab talablar asosida yo'lga qo'yish zarurati kun tartibiga qo'yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayoni mohiyatini to'laqonli anglay olgan, favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy xal eta olish salohiyatiga ega bo'lgan malakali mutaxassisni tayyorlash zaruriyati

ta'lim jarayonini ham texnologik yondashuv asosida tashkil etish lozimligini taqozo etmoqda.

Shu bois ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogika fanining vazifalari doirasi kengayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamonaviy fan texnika yutuqlaridan samarali va unumli foydalana olish vazifasi namoyon bo'lmoqda.

Ayni vaqtda respublika ijtimoiy hayotiga keng qo'lamli va shiddatli tezlikdagi axborotlar oqimi kirib kelmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbqiq etish yuqori rida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy xal etishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida ro'y berayotgan o'zgarishlar natijasida halq xo'jaligining turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlab berish ehtiyoji yuzaga keldi. Ushbu ehtiyojni qondirish ishlab chiqarish sohalari tomonidan turli mutaxassislik yoki iqtisodlik bo'yicha kasbiy ma'lumotga ega kadrlarni tayyorlash ishiga mas'ul sanalgan ta'lim muassasalariga ijtimoiy buyurtma berish hamda mazkur buyurtmaning sifatli bajarilishi asosida xal etiladi. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari zimmasiga erkin, mustaqil fikr yurita oladigan tafakkuri va dunyo qarashi keng, bilimli, shuningdek, mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim, yuksak malakaga ega bo'lgan kadrlar (mutaxassislar) ni tayyorlab berishdek ma'suliyatli ijtimoiy vazifa yuklangan.

Ishlab chiqarish sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlab berish borasidagi ijtimoiy buyurtma mohiyati o'z-o'zidan ta'lim-tarbiya tizimiga taaluqli. Ushbu tizim doirasida faoliyat ko'rsatuvchi ta'lim muassasalarining faoliyati mazmuni tubdan yoki qisman o'zgaradi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlar hamda kadrlar tayyorlash borasidagi ijtimoiy buyurtma mohiyatiga ko'ra, 1997 yil 29 avgustda oliy majlisning IX sessiyasida qabul qilingan yangi taxrirdagi «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida uzlyuksiz ta'lim tizimi yaratilib, aniq vazifalarni bajaruvchi bosqichlar belgilandi. Shuningdek, yangi turdagi ta'lim muassasalari faoliyat yurita boshladi.

Uzlyuksiz ta'lim tizimining shakllanishi o'z-o'zidan kadrlar tayyorlash jarayonining yangicha mazmun kasb etishini ta'minlaydi. Barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan uzlyuksiz ta'lim (shu jumladan, tarbiya) jarayonining yangi mazmuni mazkur jarayonga ilm fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan g'oya, kashfiyot va yutuqlarni tadbqiq etilishni

taqazo etadi. Ushbu jarayonda demokratik, insonparvarlik tamoyillarining ustuvor o'rin tutishi, ta'lim va tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, ta'lim oluvchi (talaba) ning pedagogik jarayondagi faol ishtirokini yuzaga keltirish uchun muayyan shart sharoitlarni yaratish, ularning hoxish-istaklari bilan o'rtoqlashish, shaxsiy tashabbuslarni qo'llab quvvatlash, ularda mustaqil fikr yuritish layoqatini tarbiyalash, bu borada muayyan ko'nikma xosil qilish, xosil qilingan ko'nikmaning faoliyat malakasiga aylanishga rag'bat bildirish, o'quv mazmunida yuqorida qayd etilgan g'oyalarning o'rin olishiga erishish, ta'lim oluvchilarda bilim olishga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish, rag'batni yuzaga keltirish, shuningdek, ongli munosabatni qaror toptirish va hokazolar asosida yaratiladi. Yangicha mazmun kasb etgan kadrlar tayyorlash jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish darajasi va sifat ko'rsatkichining yuqori bo'lishini kafolatlaydi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan aholi tomonidan bildirilayotgan talab va taklif asosida tartibga solinar ekan, muayyan yo'nalish bo'yicha kasbiy ma'lumotiga ega mutaxassisning ijtimoiy raqobatga bardoshligi muhim ahamiyatga egadir. Ishlab chiqarish sohalarining barkamol shaxs va malakali mutaxassis bilan ta'minlanishi ijtimoiy harakatni yuzaga keltiruvchi vosita, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning eng muhim omilidir. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot. Ijtimoiy buyurtmaning bajarilishi sifat ko'rsatkichi malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlashga olib keladi. Shu bois so'nggi yillar mobaynida ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish masalasiga respublika miqyosida alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ta'lim muassasalarining faoliyat jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bir qator shartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Xususan, bo'lajak pedagogik faoliyatni tashkil etayotgan o'qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyaning mohiyatini ochib beruvchi nazariy ma'lumotlardan xabardor etish;

- bo'lajak yoki faoliyat olib borayotgan pedagoglarni yangi pedagogik texnologiya hamda uning mohiyati xususida to'laqonli ma'lumot bera olish imkoniga ega bo'lgan o'quv manb'alari (o'quv darsligi, qo'llanma, metodik tavsiyanoma, shuningdek, muayyan o'quv fanlari bo'yicha mashg'ulot loyixalari va h.k.) bilan yetarli darajada ta'minlash;

- ta'lim muassasalari faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida to'plangan yetakchi xorijiy mamlakatlar, shu jumladan mahalliy pedagoglarning ilg'or tajribalarini ommalashtirish;

- bo'lajak yoki pedagogik faoliyat olib borayotgan pedagoglar ta'lim jarayonidagi yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan samarali, o'rinli

va maqsadga muvofiq foydalana olish ko'nikmasini xosil qilish, ushbu ko'nikmani amaliy faoliyat malakasiga aylantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish (chunonchi, nazariy va amaliy konferensiya, seminar va davra suhbatlari, maxsus o'quv kurslarini tashkil etish, pedagog xodimlarning rivojlangan mamlakatda tajriba orttirishlarini yo'lga qo'yish va h.k.).

Respublikamizda zamonaviy ta'lim-tarbiya ishlarini davlat standarti darajasiga ko'tarish uchun pedagogik jarayonga ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur.

Bu vazifani to'liq bajarish maqsadida, eng avvalo, olimlar oliygoxlarda ishlayotgan o'qituvchilar hamkorligida bir necha muammolarni yechish kerak, shu jumladan:

- yangi pedagogik texnologiyaning mohiyatini aniqlash va uning nazariy asoslarini yaratish;
- uning prinsiplarini ishlab chikish;
- pedagogik texnologiyani amalda qo'llash uchun samarali yo'llarini tanlash va hokazo.

Pedagogik texnologiya nima? Nega endi shuncha yillardan beri yarab kelgan ta'lim jarayonini eskicha tashkil etishdan voz kechishimiz kerak va o'quv jarayonini loyixalashtirishga yangicha yondashish zarur?

Bu yo'nalishlar:

- Ta'lim-tarbiya maqsad, vazifa mazmuni, tizimini islox qilish;
- Ta'lim-tarbiya boshqaruvini islox qilish;
- Ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- Ota-ona, o'qituvchi-talabanning ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- va nixoyat, bu tub isloxotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati va ahamiyatini chuqurroq tushunish uchun, bizning fikrimizcha, pedagogik jarayonga kompleksli nuqta nazardan qarash kerak, chunki pedagogik jarayon, ta'lim va tarbiyadan iborat bo'lib, juda murakkab, ko'pqirrali jarayondir. "Kompleksli" deganimizda biz bu tushunchaga "tarixiy", "tizimli", "psixologik" tushunchalarni ham kirityapmiz. Endi har birini alohida ko'rib chiqamiz.

A. Ta'lim-tarbiyaga tarixiy yondashuv. Ta'lim-tarbiyaning tarixiy jabxalarda tutgan o'rni va taraqqiyotidagi ahamiyati muhim hisoblanadi.

Tarbiyaning mohiyati - o'sib kelayotgan yosh avlodni mazkur muhit, jamiyat talablari asosida hayotga tayyorlashdan iborat bo'lib jamiyatda o'z muhim o'rniga ega.

XX asrning boshlarida Abdulla Avloniyning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo xalokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan fikri chuqur ma'noga ega, chunki tarbiyaning jamiyatdagi roli, uning o'tmish va hozirgi zamonda ahamiyati muhim.

Ta'lim esa, tarbiya jarayonining muhim elementi bo'lib, bu talabalarda ma'lumot shakllantiradigan jarayondir.

Hammamizga ma'lumki, jamiyatimiz doimo taraqqiyot etadi. Buning uchun esa yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq, tanqidiy ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim. Demak, tarbiya yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlashda, u mavjud jamiyat imkoniyatlarini shakllantirish, yanada rivojlantirish maqsadida keksa avlod tomonidan orttirilgan tarixiy tajribani to'ldirilgan, yanada mukammallashtirilgan holda yosh avlodga singdiradi.

Ta'lim-tarbiya mohiyati saqlanayotgan holda o'qituvchi o'z ish faolitada usullar, vositalar va shakllarni o'zgargan sharoitlarda yangilashga majburdir, chunki yangi davr unga doimo yangi talab qo'yadi.

B. Pedagogik jarayoniga tizimli yondashuv. Professor N.V.Kuzmina yozganidek, "Pedagogik tizim - bu o'zaro bog'langan va talabalarni ta'lim tarbiya maqsadiga yo'naltirilgan komponentlarning yig'indisi".

Bu jarayon butun jarayon bo'lib, o'qituvchi - tarbiyachining talabaga-tarbiyalanuvchiga pedagogik ta'sirlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Birinchi - nazariy, metodologik blok - zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga jamiyatimiz tomonidan qo'yiladigan talablarni ijtimoiy buyurtma sifatida yoritiladi, vazifalarni aniqlanadi, faoliyatini tashkil etish prinsiplarni (qoidalarni) ko'rsatadi hamda ta'lim-tarbiya natijalariga ta'sir etuvchi omillar va zaruriy shart-sharoitlar tavsiflanadi.

Ikkinchi - amaliy, texnologik blok esa ta'lim-tarbiyaning maqsad vazifalarni muvaffaqiyatli amalga qo'llash uchun zarur bo'ladigan shaxs fazilatlarini va bilim-ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul va vosita, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish shakl va uyushmalarini o'z ichiga qamrab oladi. Bu blokda elementlarning yig'indisini biz "pedagogik texnologiya" deb atashimiz mumkin.

Sodda qilib, birinchi blokda - ijtimoiy buyurtma, ikkinchida esa - uni amalga oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Xar ikkala bloklarning o'zaro bog'liqligini buzish mumkin emas, chunki pedagogik tizim buzilib qolsa, uning natijasi samarali bo'lmaydi.

V. Ta'lim-tarbiya jarayoniga psixologik yondashuv. Insonning faoliyati psixolog nuqtai nazaridan uchta turlaridan iborat bo'lib (o'yin, o'qish va mehnat),

muloqotga asoslanadi. Pedagog o'z faoliyati hamda o'qituvchilar faoliyatini faqat muloqot orkali tashkil qilishi mumkin.

Ta'lim sifatini yuksaltirish ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishni, rivojlantiruvchi ta'limga o'tishni, bo'lajak kadrlarda o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish kompetentliklarini shakllantirishni talab etadi. Innovatsion jarayon deganda, yangilikni yaratish, o'zlashtirish, undan foydalanish, uni tarqatish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan majmualiy faoliyat tushuniladi. Ta'limda innovatsion jarayonlarni amalga oshirish esa ta'lim sifatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini izchil rivojlanishi ta'lim tizimini butun jahon ta'lim muhiti talablariga javob berishi zarurligini taqozo etmoqda. Ta'limda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masofaviy ta'limning yuzaga kelishiga sharoit yaratdi. Shuningdek, ta'lim jarayonini xalqaro ta'lim jarayoniga aylanishiga asos bo'ladi. Albatta, bunday ta'lim tizimining yuzaga kelishida innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida tadbirg'i muhimi rol o'ynaydi.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim texnologiyasi – talabaning qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda mutaxassislarni tayyorlash mazmuni, ta'lim maqsadiga mos ravishda mazmunni loyihalash hamda pedagogik uslublar, shakllar va o'qitish usullarini tadbir etishga yo'naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi pedagog va talaba o'rtasidagi o'zaro ta'sir tizimidir. Ta'lim texnologiyasi - talabaning shaxsiy sifatlarini, kasbiy, umumkasbiy va umummadaniy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan o'qitish va tarbiyalash texnologiyasidir.

Pedagogik texnologiya insonga ta'lim va tarbiya berishning ilmiy asoslangan, inson tafakkuriga, ya'ni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining intellektual salohiyatiga bog'liq holda amalga oshiriladigan jarayonlar majmuidir. Pedagogik texnologiyani doimiy bir xil holda (hatto ma'lum qisqa vaqt oralig'ida ham), ya'ni oldindan loyihalashtirilgan jarayon deb bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, pedagogik texnologiyani bir qolipga sig'adigan, aniq bir o'zgarmas loyiha deb bo'lmaydi. Chunki har bir auditoriya, har bir guruh uchun tinglovchilarning ma'lumoti, ilmiy salohiyati, yoshi, jinsi va boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq holda, kerak bo'lsa guruhdagi har bir tinglovchi uchun alohida pedagogik yondoshuv va uning texnologiyasi talab etiladi. Masalan, pedagog bir mavzuni maktab bolalariga boshqa texnologiya asosida, oliy o'quv yurti talabalariga boshqa texnologiyada, ishlab chiqarishdagi muhandis-texnik xodimlarga boshqa va oliy o'quv yurti pedagoglariga boshqa texnologiya asosida o'tishi talab etiladi. Shuningdek, oldindan ma'lum bir guruhda dars o'tishda, pedagogning oldindan loyihalashtirib

kelgan dars o'tish texnologiyasi, auditoriyaning tayyorgarligi, undagi savol-javoblar natijasida yuzaga keladigan vaziyatlar asosida o'zgarishi ham mumkin. Shundagina pedagog aniq ko'zlangan natija - ya'ni o'z bilimni tinglovchilar tafakkuriga yetkazib, ularda rivojlantiruvchi faol faoliyat uyg'ota oladi. Menimcha o'qitishdan maqsad, tinglovchiga oldindan aniq, bor narsani o'rgatish emas, balki o'qishni o'rgatishdir. Chunki, biz bugun talabaga o'rgatayotgan texnik vositalar, ayniqsa axborot –kommunikatsiya tizim texnikalari tezda ma'naviy eskiradi, demak bitiruvchi o'zi mustaqil o'qib, yangi texnik vositalar bilan ishlash sirlarini bilishi, shunga o'zida amaliy ko'nikma hosil qilishi lozim.

Pedagogik texnologiya talabani o'qitish, tarbiyalash, shaxsini rivojlantirish masalalari yechimiga qaratilgan va ma'lum ketma-ketlik asosida amalga oshiriladigan pedagogik-psixologik usullar, uslublar majmuidir. U o'quv jarayonining texnik ta'minotidagi yangiliklar, talaba tafakkuri, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ta'lim sohasidagi davlat siyosati, jamiyatning axborot makoni (Internet), undan foydalanish imkoniyatlari, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning ma'naviy dunyosi hamda moddiy ta'minoti darajasiga bog'liq holda rivojlanib, yangilanib boruvchi innovatsion loyihadir.

Pedagogik texnologiya - insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish faoliyatidir. Lekin, pedagogik texnologiya bilan o'qitish uslubi (metodika)ni farqlash joiz.

O'qitish uslubi (metodika)- ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadbiiq qilishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalarning rivojlanishi hamda takomillashib borishi bevosita axborot texnologiyalari zaminida amalga oshadi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan asosiy vazifalardan biri fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishdan iborat. Ushbu masala yechimida axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik, muvofiqlik, bir-birini to'ldiruvchanlik bo'lishi talab etiladi. Hozirgi kunda har bir pedagog yoki ishlab chiqarish xodimi axborot kommunikatsiya texnologiyalari va texnik tizimlari majmuini puxta bilishini taqozo etmoqda. Shu bilan bir qatorda pedagog ishlab chiqarishning faol ishtirokchisi, ishlab chiqarish mutaxassisi ham o'z navbatida pedagog vazifasini bajarishi lozim. Shuningdek, fan rivoji oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlaridagi olimlarning faoliyatiga, ishlab chiqarish bilan hamkorligiga, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etilishiga bog'liqdir. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qitishning zamonaviy texnik vositalarini qo'llanilishi kadrlar sifatiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni rivojlanishi esa bevosita axborot texnologiyalari

rivojiga, ulardan ta'lim beruvchilar va oluvchilarning foydalana bilish darajasiga bog'liqdir. Demak, pedagogik texnologiyalarni rivoji kadrlar tayyorlash sifatiga, kadrlar sifati esa ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda, axborot texnologiyalari rivoji asosida takomillashib borishi, shuningdek axborotlar makoni ta'lim va ishlab chiqarish ma'lumotlari bilan boyitilib borilish.

II BOB. O'QITISH JARAYONIDA MODULLI JORIY ETISH INNOVATSION TEXNOLOGIYASI

XXI asr axborot texnologiyalarni asri, shuning uchun butun dunyo, xususan bizning mamlakatimizda ham ta'lim sohasida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Uzluksiz ta'lim O'zbekiston Respublikasining taraqqiyotini ta'minlovchi shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarni qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsni shakllantirish va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun sharoitlarni yaratadi.

Xozirgi zamon ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni kechayotgan bir vaqtda yo'nalishga qarab har bir talabaning ijtimoiy va uning bilan individual ishlash, unga beriladigan o'quv materialini o'zlashtirish qobiliyatini inobatga olgan holda ta'lim berish usulini joriy etishga muhim e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilayotgan o'qitish tizimi izchil sur'atlarda rivojlanib borishi ta'lim tizimi o'quv materiallari mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritilishini taqozo etmoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanishi xalqaro miqyosda muloqotni ta'minlash uchun ta'limning barcha bosqichlarida chet tillarini mukammal o'zlashtirishga zarurat tug'dirmoqda.

Shaxsning sifat va bilim ko'rsatkichlariga erishish tizimi modullar iyerarxiyasini tashkil etadi. Mehnat yangiliklarini modulli o'qitish texnologiyasi qisqa muddatda yosh mutaxassislarni tayyorlash bilan birga malakalarini ham ko'zda tutadi. Modulli o'qitish o'quv jarayonini shunday tashkil etishni ko'zda tutadiki, bunda o'quv materiallari modullarga bo'linadi. Bir necha modullar to'plami ma'lum o'quv mavzusi yoki o'quv fani mazmunini yoritadi.

Modullar maqsadli (yangi xodisalar, aniq faktlar haqidagi ma'lumotlardan), axborotlar (kitob, o'quv qo'llanma, darslik), jarayonlar (amaliy topshiriq va mashqlardan) iborat bo'lishi mumkin. O'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materiallarining hajmi va tarkibi, talabaning tayyorgarlik holati va har bir talabaning kelgusidagi mutaxassislik darajasiga qarab belgilanadi.

Modulli ta'lim pedagogik texnologiyalarning bir turi sifatida ta'lim jarayoniga tobora kengroq yoyilmoqda.

Modul so'zining asl ma'nosi "model" (frans. modele - namuna, lotincha – modulus – o'lchov) shartli obraz (ko'rgazma, sxema va b.q.) ya'ni obyekt yoki obyektli tizim ma'nolarini bildiradi. Umumiy ma'noda modul texnologiyasini o'qitishda ko'rgazmali vositalarning biri sifatida ham tushunish mumkin.

“Modulli o‘qitish” termini xalqaro tushuncha modul bilan bog‘liq bo‘lib, uning bitta ma’nosi – faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u, modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi.

O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi butun jahon konsepsiyasida so‘z yuritilgan edi. Modulli o‘qitish texnologiyasi – funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogik-psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

Modul fanining fundamental tushunchalarini – ma’lum hodisa yoki qonun, yoki bo‘lim, yoki ma’lum bir yirik mavzu yoki o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhini o‘z ichiga oladi.

Modul – bu o‘quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo‘lib, o‘quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o‘rganishga qaratilgandir.

Oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi u faqat o‘qituvchi – bilim uzatuvchi, tadqiqotchi – olim bo‘libgina qolmay, balki u talabaning ruhiy holatini, yoshlarning o‘smirlik xususiyatlarini bilishi uchun malakali ruhshunos ham bo‘lishi kerak. Mehnat bozorining izchil o‘zgarib turishi mutaxassis kadrlar tayyorlash ta’lim tizimida yangi holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda o‘quv maskanlarining asosiy vazifasi yoshlarga bilim va mutaxassislik berish bilan chegaralanmay, yangi texnika va texnologiyalarni o‘rgatishga moslashish, shakllanish, yangi mutaxassislik malakalarini oshirishdan iborat. Bugungikundagi ta’lim tizimini modernizatsiyalanishuvi innovatsion harakterga ega, ya’ni ta’lim mazmunini, faoliyat shaklini o‘zgartirishni talab etadi.

Modulli blokli o‘qitish – pedagogik texnologiyaning bir turi hisoblanib, yakka shaxsga qaratilgan. U bir vaqtda o‘quv jarayonlarini optimallashtirish, o‘quv maqsadiga erishishda uning to‘liqligini ta’minlash, talabaning shakllanishi va anglash doirasini kengaytiradi. Ushbu texnologiya talabalarning mustaqil ravishda ilmiy ommabop va adabiyotlarni o‘rganish, o‘qish bilan ishlash jarayonida bilimga erishishga asoslangan.

Modul texnologiyasi talabaning o‘z-o‘zini boshqarish uchun anglash, o‘zlashtirish faoliyatini boshqarishni, uning keng imkoniyatlarini muvofiqlashtirishga olib keladi. Modul talaba intellektini, mustaqilligini, kollektivlashuvini, o‘quv-o‘zlashtirish faoliyatini boshqara olish qobiliyatini shakllantiradi. Modulli-blokli o‘qitish texnologiyasi har bir talabada mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantiradi, mustaqil ma’lum bir maqsadga erishishga

o'rgatadi, o'zo'zini bilim saviyasini baholaydi, o'zlashtirish va bilim olishdagi kamchiliklarini anglaydi.

Modulli-blokli texnologiya joriy etilganda barcha pedagogik jarayon ishtirokchilari o'z-o'zini tahlil, nazorat, baholash va moslashish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ushbu texnologiya sharofati bilan "o'qituvchi-talaba" tizimida markaziy o'rnida talaba bo'ladi. Chunki talaba ma'lum vaqt oralig'ida, o'zi tushunganicha, anglaganicha va eslaganicha o'z imkoniyat doirasida topshiriqni bajaradi. Bu o'z navbatida talabada fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi, doimiy bandligi tartibbuzarlikni oldini oladi.

Hulosa qilib aytganda modulli-blokli o'qitish texnologiyasini amalda, ta'lim tizimida joriy etilishi talabaning olgan nazariy bilimlarini bevosita tajribada qo'llash amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga, uning fan materiallarini o'zlashtirishga ijodiy yondoshishiga, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish sirlarini o'rganishga olib keladi.

Pedagogik innovatika (yangilik kiritish, innovatsiya) – ta'lim muassasasining faoliyatiga nisbatan barqaror yangilik elementlarini kiritib, uning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishiga samarali ta'sir etuvchi maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy uslublari va texnik vositalari majmuidir.

Pedagogik yangiliklarni tarqalish omillari turli xil omillarga bog'liq bo'lib, ularni quyidagi 3 guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Jamiyatda pedagogik g'oyalarga bo'lgan munosabat, ta'lim sohasidagi davlat siyosati: keng rejali ijtimoiy sharoitlar.

2. Aniq yo'nalishdagi davlat va jamiyat institutlari faoliyati, ommaviy axborot vositalari, o'quv yurtlari, ta'lim organlari, mustaqil ijodiy pedagogik uyushmalar: xususiy ijtimoiy sharoitlar.

3. Pedagogik yangiliklarni yaratuvchi va targ'ib qiluvchilarning shaxsiy xususiyatlari, jumladan ushbu kishilarni jamiyatda tutgan o'rni, ta'lim arboblari, o'qituvchilar ommasi va ijodiy pedagoglar nigohida tutgan o'rni: shaxsiy omillar.

Interaktiv o'qitish - talaba o'zida oldin mujassamlashgan tajribadan foydalangan holda, o'quv jarayonida faol ishtirok etadi, mashg'ulot davomida shaxsiy rol o'ynab, yangi tajribalar orttiradi, olgan tajribalari asosida darsni tahlil qilib, o'ziga kerakli muhim materiallarni oladi hamda o'zining kundalik faoliyati bilan bog'laydi.

“Interaktiv” soʻzi ingliz tilidan olingan boʻlib, “inter” – oʻzaro, “act” - faoliyat qilmoq maʼnosini bildiradi. Interaktivlik esa, bu oʻzaro munosabatda boʻlmoq, dialog rejimida oʻqimoq maʼnosini bildiradi. Shu sababli interaktiv oʻqitish - dialogli oʻqitish demakdir. Dialog anʼanaviy oʻqitish uslublarida ham mavjud, jumladan “oʻqituvchi-talaba”, “oʻqituvchi-talabalar guruhi” koʻrinishida. Interaktiv oʻqitishda esa dialog “talaba-talaba”, talaba-talabalar guruhi”, “talaba-auditoriya”, “talabalar guruhi-auditoriya” (guruhlar prezentatsiyasi), “talaba-kompyuter” kabi koʻrinishlarda ham boʻladi. Talaba maʼruzada faqat “passiv” tinglovchi sifatida emas, balki “aktiv” ishtirokchi sifatida qatnashadi.

Interaktiv oʻqitish texnologiyasi anʼanaviy maʼruza oʻqish uslubini koʻzda tutmaydi va shu bilan bir qatorda maʼruza darslarini amaliy darslarga qarama-qarshi qoʻymaydi. Interaktiv oʻqitishda maʼruza va amaliyot bir butun mashgʻulotning qismlari deb qaraladi va bu oʻqituvchi hamda talabaning oʻzaro taʼsiri hamda talabalarning mashgʻulot davomida faol ishtirok etish darajasi bilan belgilanadi. Maʼlumki, anʼanaviy maʼruza darslarida oʻqituvchi faolligi taʼminlansa, amaliy mashgʻulotlarda talaba faolligi talab etiladi. Interaktiv uslubda oʻqituvchidan mashgʻulot davomida talaba va oʻqituvchi oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir darajasining bir koʻrinishidan ikkinchi mavzuga bogʻliq holda ustamonlik bilan ravon oʻtishni talab etiladi.

Talaba maʼlumotlarni faqat eshitish orqali qabul qilsa, berilgan maʼlumotlarning oʻrtacha 20 foizini oʻzlashtiradi. Shu sababli agar maʼruza faqat mavzuni ogʻzaki tushuntirish shaklida (anʼanaviy) oʻtilsa, talabalar darsda berilgan maʼlumotlarning 80 foizini esda saqlab qolmaydi va darrov unutishadi. Oʻrtacha odam bir minutda 800 tagacha soʻzni eshitishi va tushunishi mumkin. Vaholanki, auditoriyadagi talabalar oʻqituvchi nutqiga nisbatan 4 marta tez eshitish qobiliyatiga ega. Demak, ogʻzaki tushuntirish vaqtida vaqtning 75 % qismida talaba eshitmaydi, u boʻsh qoladi, agar oʻqituvchi faqat ogʻzaki tushuntirib, maʼruza qilsa talaba diqqatini yoʻqotadi. Shu sababli maʼruzani faqat oʻqib berish yoki ogʻzaki tushuntirish shaklida olib borish samarasiz hisoblanadi. Agar talaba maʼlumotlarni bir marta oʻzi oʻqisa, u 25 foiz maʼlumotni eslab qoladi. Demak, maʼruzada talabalar oldida maʼruza qilish bilan birgalikda, ulardan mavzuning asosiy joylarini dars davomida oʻzlari oʻqishlari talab etilsa, maʼruza samarasi ortadi. Buning uchun slaydlar, tayanch iboralar, tarqatma materiallar zarur boʻladi va maʼruza davomida ulardan talaba faolligi taʼminlangan holda foydalaniladi. Agar berilayotgan maʼlumotlar ikki marta takrorlansa, talaba maʼlumotlarning 30 foizini eslab qoladi.

Agar talaba yozib, oʻqisa maʼlumotlarni 45 foizgacha oʻzlashtiradi. Demak, maʼruzaning tayanch iboralari maʼruza davomida yozdirib borilsa, oʻzlashtirish

ikki marta ortadi. Talaba o'rtacha bir minutda 40 tagacha so'z yozishi mumkin. Lekin, maqsad faqat tez yozdirish bo'lib qolsa, natija yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Shuning uchun ma'ruzaning tayanch iboralari yozdirilayotganda, talabaga diqqatini jamlab, tushunib yozishi uchun vaqt berish kerak, ya'ni yozdirilayotgan iboralarni to'xtab-to'xtab, sekin ifoda etish zarur. Ko'pchilik muhokama, bahs jarayonida ma'lumotlarning 60 foiziga yaqinini o'zlashtiradi, ya'ni o'quv jarayoni oddiy ma'ruza o'qishga nisbatan 3 marta samarali bo'ladi. Talaba berilayotgan ma'lumotlarni hayotiy tajribasi orqali taqqoslasa, bilim amaliyot orqali yetkazilsa, talabalarga doimiy ushbu materiallarni real hayotda kerak bo'lishi tushuntirilsa, mashg'ulotda mavzuni real hayot bilan bog'lab talabalarning faol fikr bildirishlariga sharoit yaratilsa, mavzu bo'yicha berilayotgan ma'lumotlarni talabalar tomonidan 80 foizgacha o'zlashtirishlariga erishish mumkin. Yuqorida bildirilgan fikr mulohazalardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

1. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustaxkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

2. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jihatdan o'zgarishini ta'minlaydi.

3. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish xolatining sifat ko'rsatkichiga ega bo'lishiga olib keladi.

4. Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyatlari hamda ularning samarasi ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuviga olib keladi.

2.1. Ta'lim jarayonida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish mexanizmlari

O'quv jarayonida mustaqil ta'limning talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi muammolarni hal etish doimiy dolzarb hisoblangan masala hisoblanadi. Shu bois, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan. Shuningdek, mazkur muammolarni tizimli hal qilish borasida Respublikada huquqiy meyoriy asoslar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini

yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni

Tahlil va natijalar O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish borasida katta ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 3-bobining "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan 1-§ da "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quvslubiy materiallarni keng joriy etish" masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzlyuksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir.

Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanmaganligi, o'quv jarayonidatalabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi. Shunday ekan, oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim

standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quvslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Yuksak malakali mutaxassislarni iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirilishi mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatilishi ta'minlanishi kerak.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish asosiy muammolar qatorida va ushbu muaamolardan kelib chiqib, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etilgan yangi avlodini yaratish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish bosh maqsad bo'lib qolmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihati muhimki, oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan talabalarning tanlagan kasbiga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanishlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilishni ta'minlash lozim. Har qanday jamiyatda bo'lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy muammo hisoblanadi. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim muassasalarida mustaqil ishni qanday bajarishni har bir talabaning o'zi amalga oshiradi. Muvafaqqiyatga erishish uchun talabaning o'zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak. Buni esa talabaning o'zi rejalashtiradi va amalga oshiradi [4]. Jamiyatning barcha jabhalaridagi muammolar, o'zgarishlar oliy ta'lim muassasalarida talabalarini tayyorlash jarayoniga ham ta'sir qilib va yangidan yangi talablarni qo'yadi. Hozirgi paytda ham nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega, o'zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil

hal qila oladigan mutaxassislariga, kadrlarga ehtiyoj katta. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassalarida talabalaridan har tomonlama bilimdonlik, mustaqil fikrlay oladigan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega shaxs darajasini talab etadi. Bunday talablarning bajarilishi albatta ularni butun hayoti davomida bilim olishga o'rgatish orqali ta'minlanadi. Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim, egallangan ko'nikma va malakalar mazmunan tizimli va mantiqan tugallangan tarzda shakllantirilib turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi. Ta'lim oluvchilarni faollashtirish ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga muammoni yechimi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazishdir. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir.

Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. Shunday ekan, kredit – modul tizimi dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan deb aytish mumkin.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarining mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi. Xulosa va takliflar Oliy ta'lim muassasalari mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy masalardan hisoblanadi Bu borada quyidagi

yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta‘lim tizimidagi islohotlar negizida ta‘lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun o‘qitish jarayoni shunday tashkil etish kerakki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo‘llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o‘quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta‘minlashga e‘tibor qaratish.

Ikkinchidan, ushbu sohada muvaffaqiyatlarga erishgan novator o‘qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yiishlab chiqish.

Uchinchidan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot davrida talabalarning mustaqil ta‘limga oid ma‘lumotlarini zamon talablari asosida shakllantirish va rasmiylashtirish yo‘llarini yo‘lga qo‘yish.

To‘rtinchidan, mustaqil ta‘lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yish.

Yuqorida sanab o‘tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta‘lim muassasalarida mustaqil ta‘lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish, talabalarni mustaqil ishlashga o‘rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o‘z o‘rnini topa olish malakasiga ega bo‘lgan, istiqboliy vazifalarni qo‘yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Ta‘lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish hamda e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqishlariga o‘rgatadi. Muhimi talaba ta‘lim jarayonida asosiy bo‘g‘iniga aylanadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchanlik funksiyasini ham bajaradi.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta‘lim tizimini to‘liq axborotlashtirishni, an‘anaviy o‘qitish mazmunini qayta ko‘rib chiqishni, o‘quv fanlarini integratsiyalashni, o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy mustaqil ishini takomillashtirish integrativ tafakkurini psixologik xususiyatlarini imkoniyatlarini kengaytirish tizimining dolzarb muammolaridan ishi kompetentlarini rivojlantirishda kasbiy yo'naltirilgan kommunikatsiya texnologiyalaridan qobiliyatlarini rivojlantirish takomillashtirish bo'yicha Respublikamiz ta'lim mu asosida talabalarning texnologiyalarini ta'lim ilmiy va ta'lim muassasalari xalqaro ta'lim standartlariga materiallarni joriy muassasalarining infrastrukturasini amalga oshirilayotgan islo rivojlangan, Vatanga sodiq demokratik islohotlarni jarayonida ularning ijtimoiy etilmoqda.

Shu bilan birga, rivojlantirishda zamonaviy didaktik vositalardan ta'lim mazmunini takomillashtirish, texnologiyalaridan keng foydalanish, talabalarning rivojlantirish, ularning mustaqil ishini tashkil bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida muaccacalapida so'nggi yillarda xorijiy mustaqil ish faoliyati, o'quv-uslubiy ta'lim jarayoniga joriy etish, oliy ta'lim muassasalarining muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish standartlariga asoslangan pedagogik texnologiyalar qilishning meyoriy asoslari yaratilmoq infrastrukturasini rivojlantirilmoqda. Hozirda islohotlar natijasida "Yoshlarni jismonan sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega otlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini ijtimoiy faolligini oshirish" ustuvor vazifa sifatida e'tirof e'tilmoqda.

Shu nuqtai nazardan aytganda, mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida ta'lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, o'g'il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishi, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidori, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Talablarga yuqori darajadagi bilimni o'quv auditoriyasidagi mashg'ulotlar to'liq bera olmaydi. Buni amalga oshirishda mustaqil o'quv faoliyati to'ldiruvchi rivojlantiruvchi vazifasini bajaradi.

Mustaqil ishlarni uch turga ajratishni tavsiya qilamiz:

1. Yozma mustaqil topshiriqlarga quyidagilar kiradi: hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar tuzish, turli organayzerlar asosida talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqalar.

2. Grafik mustaqil topshiriqlarga quyidagilarni kiritish mumkin: turli loyihalarni tayyorlash, chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash (ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish va hokazo), sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

3. Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlarga quyidagi vazifalarni kiritish mumkin: talabalar o'qituvchining topshirig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida buyum va mahsulotlarni tayyorlash, jihoz va asbob-uskunalarini ta'mirlash, mahsulotga ishlov berish, hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellar, namunalar tayyorlash kabi ishlarni amalga oshiradilar.

Mustaqil ishlar individual-didaktik maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ham 4 guruhga bo'linadi:

- bilimlarni dastlabki shakllanishiga, idrok qilishga undaydigan vazifalar. Bunda talabalar maqsadga erishishi uchun nima talab qilinishini bilishi lozim. Vazifalar - axborotlar, ma'lumotlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi;

- o'zlashtirishga axborot, ma'lumotlarni xotirada saqlash va qayta jonlantirish, qayta ishlashga qaratilgan topshiriqlar. Bunda avval egallangan bilimlarni to'g'ri jalb qilish, faollashtirish asosida bajariladigan hamda aniq sharoitda tatbiq etish talab qilinadigan vazifalar beriladi;

- avval o'zlashtirilgan, qolipga tushgan, tajriba to'planishi natijasidagi bilim, malaka, ko'nikmalarga yangicha nuqtai nazardan yondashishni talab qiluvchi topshiriqlar. Ularda masalaning mohiyatini izlash, yangicha yechimlar topish, yangicha g'oya, fikrlar bilan ifodalashni talab etiladigan vazifalar beriladi. Ijodiy faoliyatga undovchi topshiriqlar. Bunda yangi yoki oldindan ma'lum bo'lsa-da, ungacha boshqacha nuqtai nazardan qaralgan g'oya, fikrlarni tadqiq qilish, ya'ni axborotlar to'plash, ular ustida ishlash, o'z fikrini bildirishga undaydigan topshiriqlar, vazifalar beriladi. Bugungi kunda malakali mutaxassis tayyorlash jarayonini mustaqil ishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki aynan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash reflekslari rivojlantiriladi. Ammo mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonida ma'lum qiyinchiliklar va muammolar ham mavjud:

- tarqatma materiallarni tayyorlash masalasi. Pedagog tomonidan tayyorlangan tarqatma materiallar har bir talaba uchun ko'paytirilishi lozim. Talabalar soni o'rtacha 20 nafar bo'lishi mumkin. Har bir tarqatma materialni 20 tadan ko'paytirish uchun ma'lum mablag' talab etiladi. Pedagog har gal o'z hisobidan mablag' ajratish imkoniga ega emas;

- dars jarayonida tashkil etiluvchi mustaqil ishlarni ba'zan kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish usulidan foydalangan holda o'tkazish talab etiladi. Buning uchun kichik guruhlarda ishlashga qulay auditoriyalar talab etiladi, ammo bunday imkoniyatlar ayrim oliygohlarda hozircha yo'q;

- ko'pchilik pedagoglar mustaqil ishlarni tashkil etish mahoratiga ega emas;

- mustaqil ishlarni bajarish uchun talabalar talab etiluvchi bilimlar bilan yaxshi qurollangan, mavzuni chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. Agar ma'ruza

darsida talaba yetarli tushunchaga ega bo'lmagan bo'lsa, u topshiriqni ijobiy hal etish imkoniga ega bo'lmaydi. Shuning uchun mustaqil ishlarni tashkil etishda avvalambor bilimlarni faollashtirish, eslash, korrektirovka qilish va yagona xulosaga kelish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda fan-ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonini ham alohida e'tiborga olib, bitiruv malakaviy ish mavzularini buyurtmachilar bilan maslahatlashgan holda tanlash maqsadga muvofiqdir. Bitiruv malakaviy ishlarning natijalari buyurtmachilar tomonidan baholanadi va real vaziyatlarda ulardan foydalaniladi.

Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlar loyiha va keys-stadi usulidan foydalangan holda o'tkazilishi talabalarda ijodiy ko'nikmalarning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Mustaqil faoliyatni tashkil etish jarayonida o'qituvchi ko'proq didaktik materiallardan foydalanadi. Didaktik materiallarga o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli, qiziqarli savollar, ijodiy topshiriqlar, loyihalar o'yinlar, krossvordlar kabi materiallar kiradi (1-jadval).

Didaktik topshiriqlar va materiallarni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berishni mutaxassilar tavsiya qilishgan:

1. Muammolarni hal qilishga yo'naltirish.
2. Tadqiqotlar olib borishga yo'naltirish.
3. Turli vaziyatlar va holatlar tahliliga qaratish.
4. Tajribalar va mashqlar o'tkazishga mo'ljallash.
5. Yangiliklarni izlash va topishga yo'naltirish.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda «oddiydan-murakkabga» hamda «umumiyydan-xususiyyga», «mavhumdan-aniqlikka» qarab harakatlanishni ta'minlash lozim. Auditoriyada mustaqil faoliyatni tashkil etishga oid yuqoridagi talablar tizimi bilan tanishib chiqqach, o'qituvchi auditoriyada olib borish mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar bilan talabalarni tanishtiradi (organayzerlar, interfaol metodlar, mustaqil topshiriqlar). Talabalarni bir necha guruhga bo'ladi va har bir guruhga alohida vazifa topshiradi.

Har bir guruh o'ziga topshirilgan vazifa bo'yicha taqdimot tayyorlaydi. Talabalar faoliyati individual holda tashkil etilib, ularning o'zlariga o'tilayotgan kurs bo'yicha auditoriyadan tashqarida mustaqil faoliyatni tashkil etish jadvalini to'ldirish taklif etiladi (2-jadval). Ushbu faoliyat natijalarini tahlil etish uchun ekspertlar guruhi tayinlanadi. Ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olishiga alohida e'tibor qaratilishi, ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr va ijodiy fikrni rivojlantirish masalasi ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Talabalarning mustaqil tahsili ularni o'z bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini

o'zlashtirishga bo'lgan intilishidir. Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda o'z ustida ishlash ustunligidir. Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng zarur axborotni topish, unga baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi mexanizimlardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- siyosiy-madaniy ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni konspekt qilish;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- berilgan mavzular bo'yicha referat, axborot tayyorlash;
- o'rganilayotgan fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;
- muammoli vaziyatlarning yechimini topish;
- keys stadi asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish;
- kasbga oid bo'lgan loyihalarani tayyorlash.

O'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o'zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar auditoriyadan tashqarida amalga oshirilgan mustaqil ishlar qatoriga kiradi. Birinchi turdagi ishlar - talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o'zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg'ulotlarga (amaliyot, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko'rish va hokazo. Ikkinchi turdagi ishlar fanning ishchi o'quv dasturida auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishi belgilangan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o'zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o'zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgilangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi. Kurs ishi va loyihasi hamda bitiruv ishlarini tashkil qilish bo'yicha olib boriladigan faoliyat ham auditoriyadan tashqarida olib boriladigan mustaqil ishlar qatoriga kiradi. Mustaqil ishlar joriy o'quv jarayoni bilan birgalikda va uzviy bog'liqlikda olib boriladi. Mustaqil

ravishda bilish doirasini kengaytirish hamda qo'shimcha nazariy va amaliy materialni egallash talaba egallayotgan kasbiy malaka va ishlab chiqarishda mustaqil ishlay bilish ko'nikmasini orttirish bilan chambarchas bog'langan. Adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, uni o'qib chiqib tushunish, eslab qolish nuqtai nazaridan emas, balki ma'lum bir o'quv masalalarini (masalan, masala yechishni, kurs loyihasi va bitiruv ishi loyihalarini) hal etish uchun zarur bo'lgan materiallarni topish va ularni tizimlashtirish, tahlil etishni o'zlashtirish nuqtai nazaridan qarash kerak. Referat, kurs ishi va bitiruv ishlarining vazifasi maxsus fanlardan olingan nazariy bilimlarni mustaqil bilim orttirish yo'li bilan amaliy mustahkamlashdan iboratdir. Talabalar kurs ishi yoki bitiruv ishi bajarishar ekan, ular albatta, chizish, hisoblash, tahlil ishlari bilan birga (bir vaqtning o'zida) bajariladigan ishlar bo'lib, izlanishlar va prognozlashning ilg'or usullari asosida mustaqil ravishda olib boriladi. Talabalarda kurs ishini bajarish malakasini shakllantirish hamda talabalarning iqtisodiy muammoni yechishdagi ijodiy izlanishlari quyidagi usullarda olib borilishi mumkin: muammoni atroflicha o'rganish, uning nazariy jihatdan chuqur tahlil etish va amaliy holatdagi chetga chiqishlarni aniqlash, hatolar va ularni yo'qotish yo'llarini izlash. Mazkur faoliyatning yutug'i shundaki, u talabalarni ijodiy izlanishlar, mulohazalar yuritish, yangi yechimlarni ishlab chiqishga undaydi.

2.2. Modulli o'qitish texnologiyasini joriy etish muammolari

Mehnat bozorining o'zgaruvchanligi ta'lim tizimida yangi vaziyatni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, hozirgi paytda ta'lim muassasalarining vazifasi nafaqat yoshlarga umumiy ta'lim va kasbni berish, balki yangi texnologiyalar, texnikalarni, ilg'or malaka oshirish va yangi mutaxassisliklarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishdan iborat. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zamonaviy jarayonlari ta'lim mazmunidagi o'zgarishlarning innovatsion tabiati, faoliyat yo'nalishi, natijada mutaxassislarning kasbiy va umumiy vakolatlari darajasiga bo'lgan talablarning o'zgarishi bilan bog'liq. Talabalar bilan ishlashda duch kelinayotgan muammolar:

- yangi sharoitga moslashuvning turli darajalari;
- turli xil tayyorgarlik darajasi;
- mustaqil faoliyatning past darajasi;
- turli tadqiqotlarni o'tkazish va ularni qayta ishlashdagi muammolar;
- o'quv, kasbiy yoki tadqiqot mavzusidagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun modulli o'qitishdan foydalanish tavsiya etiladi. Bu o'z-o'zini anglovchi, hayotiy va kasbiy muammolarni hal

qilishga qodir mutaxassisni yaratishga yordam beradi. Modulli ta'lim pedagogik texnologiyalardan biri bo'lib, mohiyatan shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir. Bu bir vaqtning o'zida o'quv jarayonini optimallashtirishga, o'quv maqsadlarini amalga oshirishda, o'quvchilarning bilim va shaxsiy sohasini rivojlantirishda uning yaxlitligini ta'minlashga imkon beradi. Ushbu texnologiya talabalarning o'quv jarayoni davomida o'quv, ommaviy-ilmiy va ma'lumotnoma sifatidagi adabiyotlar bilan mustaqil ravishda ishlashga va bilim olishiga asoslanadi. Pedagogika va metodologiyada modul butun tizimning muhim qismi sifatida ko'rib chiqiladi.

Modulli o'qitish nazariyasining asoschisi, amerikalik olim J.Rassell o'z ishida modulni "didaktik tarkib va o'quvchining harakatlar to'plamidan iborat konseptual birlikni o'z ichiga olgan o'quv to'plami" deb ta'riflyagan. Shu bilan birga, u yangi bilimlarni to'liq o'zlashtirish uchun talaba ushbu harakatlarni individual sur'atlarda bajaradi, deb tasavvur qildi". Ushbu ta'rifda, mohiyatiga ko'ra modulning didaktik tarkibiy birliklarini tanlash tamoyili ko'rsatilgan. Uning ma'nosi shundan iboratki, yangi bilimlarni o'zlashtirish obekti sifatida minimal semantik tarkibga ega bo'lgan, ammo ayni paytda yaxlitlik xususiyatlarini saqlaydigan tuzilmani tanlash kerak. Ko'rsatilgan holat modulli o'qitish texnologiyasida prinsipial ahamiyatga ega.

Modulli texnologiyalarni tatbiq etish tahlili ta'lim muassasasining eng muhim quyidagi vazifalarini aniqlashga imkon beradi:

1. Professor-o'qituvchilarni psixologik va pedagogik tayyorlashdagi kamchiliklarni bartaraf etish.

2. Mehnat bozorida mustaqil va faol subekt mavqeyiga yo'naltirilgan kasbiy va pedagogik tafakkurni shakllantirish.

3. O'z faoliyatini tahlil qilish, o'zini o'zi anglash, o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatlarini rivojlantirish.

4. Pedagoglarni ijtimoiy-madaniy va innovatsion faoliyatlarga yo'naltirish.

Modulli o'qitish joriy etilganda, quyidagi afzalliklarga erishiladi:

- samaradorligi;
- o'qitishning individualligi;
- o'quv jarayonini o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari asosida shakllantirish;
- o'quv materialini individual qobiliyat va pedagogik maqsadlarga moslashtirish;
- o'quv yuklamasining bir tekis taqsimlanishi;
- bajarilgan ish natijalari bo'yicha bilimlarni baholash;
- mashg'ulot vaqtini qisqartirish;
- masofadan o'qitish imkoniyati.

Modulli ta'limning ba'zan quyidagi salbiy tomonlari ham uchrashi mumkin:

– bitta modul ichida materiallarni noto‘g‘ri tanlab olish holatlari bo‘lishi mumkin;

- topshiriqlarni bajarish muddatining chegaralanganligi;
- modulli dasturlar va materiallarni tayyorlash uchun vaqt xarajatlari;
- o‘qitishning yangi shakliga moslashish.

Modulli o‘qitish o‘quv materiallarining qat’iy tuzilmaga ega bo‘lishini, o‘qitish mazmuni va talabalarning ishlarini tashkil qilishni mantiqiy yakunlangan o‘quv bloklari to‘liq o‘z ichiga olishini nazarda tutadi. Modul o‘quv predmetining mavzusiga mos keladi. Biroq modulda mavzulardan farqli o‘laroq, hamma narsa o‘lchanadi, hamma narsa baholanadi: topshiriq, ish, darsga qatnash, boshlang‘ich, oraliq va yakuniy daraja. Modulda o‘quv maqsadlari, vazifalari va ushbu fanni o‘rganish darajalari, ko‘nikmalari va malakalari aniq belgilanadi. Modulli o‘qitishda hamma narsa oldindan dasturlashtirilgan: nafaqat o‘quv materialini o‘rganish ketma-ketligi, balki uning o‘zlashtirish darajasi va o‘zlashtirish sifatini nazorat qilish.

O‘quv kursi, odatda, kamida uchta modulni o‘z ichiga oladi. Bunday holda nazariy modul, amaliy ish va yakuniy loyihalar alohida modul bo‘lishi mumkin. Modulni ishlab chiqishda har bir modul mutlaqo aniq mustaqil bilim berishi va zarur ko‘nikmalarni shakllantirish kerakligi hisobga olinadi. Har bir modulni o‘rganib chiqqandan so‘ng, talabalar o‘qituvchidan kelgusi ishlari uchun tavsiyalar olishadi. Talabalar to‘plagan ballariga ko‘ra, o‘zining o‘zlashtirish darajasini baholay oladi.

Modulli o‘qitish tizimi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

– modullilik. O‘quv materiallari mantiqiy ravishda bir-biri bilan bog‘langan va bitta didaktik maqsad bo‘yicha birlashtirilgan alohida tugallangan bloklarga bo‘linadi;

– moslanuvchanlik. O‘quv dasturlarining o‘zgarishiga qarab modulning tarkibini erkin ravishda to‘ldirish va almashtirish mumkin;

– egiluvchanlik.

Modul tarkibini talabalarning individual talablariga moslashtirish;

– maqsadli o‘qitish. Talabalar oldiga hozirgi va istiqboldagi maqsadlar qo‘yiladi. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga ongli munosabatda bo‘lishga asoslangan holda oquv bloki tashkil etiladi;

– individuallik. Har bir talaba uchun individual maslahat va ko‘rsatmalar berish.

Pedagog o‘quv materialini bloklarga ajratadi, modulli dastur tuzadi va modulli darslarni ishlab chiqadi. Asosiy maqsad – modul bilan ishlashda talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish. Buning uchun dars davomida

pedagog o'quv jarayonini nazorat qiladi, maslahatlar beradi. Har bir o'quv elementining bajarilish vaqtini kuzatib boradi va o'quvchilarga belgilangan vaqt haqida ma'lumot beradi.

Modulli o'qitishda talaba uchun quyidagi afzalliklar yuzaga keladi:

- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish;
- mashg'ulotdagi psixologik qulaylik;
- modullar bilan ishlash individual sur'atlarda olib boriladi;
- har bir modulli darsda individual ish trayektoriyasi.

Modulli o'qitishda pedagog uchun quyidagi afzallik yuzaga keladi:

– dars davomida talabalarga individual ravishda maslahat berish uchun bo'sh vaqtga ega bo'linadi.

Modulli o'qitishda talabalar uchun quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- vazifalarni bajarishda vaqtning yetishmasligi;
- topshiriqlarning yuqori sur'atlarda bajarilishi;
- ba'zi talabalar mustaqil ravishda ishlay olmaydilar.

Modulli o'qitish texnologiyasini joriy etish jarayonida milliy ta'lim tizimining asl holati va o'ziga xos xususiyatlarini, uning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olish va bu texnologiya uchun ushbu tizimda samarali ishlashiga sharoit yaratish kerak

Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Paydo bo'lish tarixi

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda [AqSh](#) universitetlarida joriy etilgan bo‘lib, o‘quv jarayonlarini [liberalizatsiya](#) qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.

1869-yilda [Garvard universiteti](#) prezidenti, Amerika ta’limining taniqli arbobi [Charlz Uilyam Eliot](#) „kredit soati“ tushunchasini iste’molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 – 1880-yillarda kredit soatlari bilan o‘lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o‘qish va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish talabalarga o‘quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Kredit to‘plash o‘lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo‘lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog‘da, [baholash tizimi](#) va ta’lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi.

[Bolonya deklaratsiyasi](#)da ko‘zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta’limga urg‘u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

birinchisi, talabalar va o‘qituvchilarning mobilligini, ya’ni bir oliy ta’lim muassasasidan boshqa OTMga to‘siqlarsiz, erkin ravishda o‘tishini (o‘qishni yoki ishni ko‘chirish)ni ta’minlaydi;

ikkinchisi, talabaning tanlagan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha barcha o‘quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama – kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig‘indisi talabaning tanlagan dasturi bo‘yicha nimani qancha o‘zlashtirganligini namoyon etadi.

O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida qo‘llanishi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2020-yil 31-dekabrda „[Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida](#)“gi qarori asosida „Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida“ NIZOM tasdiqlangan. Mazkur Nizomda esa kredit-modul tizimiga oid asosiy tushunchalar berib o‘tilgan. Unga ko‘ra:

GPA (Grade Point Average) – ta’lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = K_1U_1 + K_2U_2 + K_3U_3 \dots + K_nU_n : K_1 + K_2 + K_3 \dots + K_n \text{ ga tengdir.}$$

Bunda:

K – har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan/modul bo‘yicha talaba to‘plagan [baho](#);

Kredit – ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

Kredit to'plash – ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;

Talabaning shaxsiy ta'lim **trayektoriyasi** – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan **kompetensiyalar** yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut).

O'qish yuklamasi – talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari – ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, **laboratoriya ishi**, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi.

- Modul – bu alohida individual o'quv fani. O'zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo'lib, ta'lim oluvchilarning o'quv dasturini o'zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi.

- Kredit-modul o'qitish tizimi esa, har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

- Ta'limning kredit tizimi talabaga yo'naltirilgan o'qitish, ta'lim berish va baholashning oshkoraligi tamoyiliga asoslangan bo'lib, sinov birliklarini yig'ish va ko'chirib o'tkazishdan iboratdir. Mazkur tizim sinov birliklarining jamg'arib boriladigan ta'limning barcha bosqichlari bo'yicha ilgari yig'ilgan o'sib boruvchi sinov birliklari hisobini bildiradi. Kredit modul tizimi ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv amaliyoti, klinik o'quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek ta'lim oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha haftalik soat yuklamasi va ta'lim oluvchilarning faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta'lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so'ng kreditlarni to'plash mumkin.

Kredit-modul o'qitish tizimi o'quv jarayonining quyidagi shakllaridan tashkil topadi:

auditoriya mashg'ulotlari – ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv (klinik) amaliyoti; □ auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar – ilmiy kutubxonada ishlash, mustaqil ishlar, individual maslahatlar, klinik vazifalar, ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, ta'lim

oluvchilarning ilmiy anjumanlarda qatnashishi, magistratura mutaxassisliklarida ilmiy faoliyat turlari va boshqalar.

ECTS (The European Credit Transfer and Accumulation System) – Evropa Kredit Transfer Tizimi

- ECTS – Evropa Kredit Transfer Tizimi 1989 yilda asos solingan bo‘lib, Evropa davlatlari tomonidan ishlab chiqilgan, tekshirilgan va takomillashtirilgan kreditlarni taqsimlash tizimidir.

- ECTS tizimida talaba olgan bilimining bahosini bir davlatdan (OTMdan) ikkinchi davlatga (OTMga) erkin ko‘chishini, erishilgan ko‘nikma va malakasini erkin tan olinishini, pirovardida barchasini hisobga olib daraja (diplom) olishini nazarda tutuvchi tizimdir.

- ECTS tizimida ta'lim olishning barcha turlari (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy) va o‘quv yuklamasining barcha ko‘rinishlari (ma'ruza, amaliyot, laboratoriya v.h) uchun qo‘llanilishi mumkin.

- ECTS tizimida 3 ta muhim tushuncha mavjud:

- 1) ECTS krediti,

- 2) 2) Erishilgan bilim – (Learning outcomes) shaxsning o‘rganilayotgan fan bo‘yicha erishgan bilimlari, uni amalda qo‘llay olishi, fanning mohiyatini tushuna olishi, mushohada yurita olish darajasi v.h.

- 3) 3) Ish hajmi va turi – (Workload) ma'ruza, amaliyot, mustaqil ish, laboratoriya.

- 4) • ECTS tizimida bir o‘quv yilida jami 60 kredit yig‘ish mumkin. Shundan 3 yillik bakalavr darajasini olishda 180 kredit, 2 yillik magistratura darajasini olishda 120 kredit olish ko‘zda tutiladi.

- 5) • 1 Kredit odatda 30 akademik soatga teng.

- 6) • Talaba ta'lim olish davridagi 1 yil davomida o‘rtacha 1500/1800 akademik soatga teng vaqt sarflaydi.

- 7) • 1 semestr davomidagi o‘rtacha haftalar soni tahminan 15/16 tani tashkil etadi. Kredit tizimida 3 ta asosiy tushuncha O‘qituvchi bilan yuzma-yuz vaqt (contact hours) Talabaning sarflagan vaqti (student committed time) Bilim olish davri (learning time) 4 kreditli fanni hisoblash uchun misol (90 soatli fan)

- 8) • Ma'ruzalar 1=15, masalan 30 juftlik (para) ma'ruza – 2 kredit

- 9) • Amaliyotlar 1=30, masalan 30 juftlik amaliyot (seminar) – 1 kredit

- 10) • Laboratoriyalar 1=30, masalan 30 juftlik laboratoriya – 1 kredit Angliya oliy ta'limi (Bakalavr)

- 11) • 1-yil – 120 kredit.....(Oliy ta'lim sertifikat-Certificate in HE)

- 12) • 2-yil – 120 kredit.....(Oliy ta'lim diplomi – Diploma in HE)

13) • 3-yil – 120 kredit.....(Oliy ta'lim darajasi – Degree in HE), (360)
Angliya oliy ta'limi (Magistr)

- 1-yil – 60 kredit

- 2-yil – 60 kredit.....(Magistrlik darajasi) Germaniya oliy ta'limi misolida 30 akademik soatli dars 1 kreditga teng 1 yillik o'qish uchun – 60 kredit 4 yillik bakalavr o'qish uchun – 240 kredit 2 yillik magistratura uchun - 120 kredit Konvertasiya uchun misol keltiramiz. Deylik, bir talaba ECTS mavjud bo'lmagan OTMni bitirib Germaniya OTMidagi magistratura kirish uchun, bakalavrda olgan baholarni ECTS tizimiga konvertasiya qilmoqchi. Talaba “Marketing asoslari” fanini 48 soat o'qigan (ma'ruza, imtihon, seminar va loyiha bilan birga) va bu fan 3 kreditga teng deb hisoblangan. U haftasiga “Marketing asoslari” fanini 3 soatdan o'qigan va qo'shimcha yana 3 soatdan mustaqil ish ham olib borgan. Demak fanda qo'shimcha 48 soat mustaqil ish ham bor. Talaba o'qigan OTMda 1-semestr tahminan 16 haftaga teng. Shunda: $3 \times 16 + 3 \times 16 = 96 / 30 = 3.2$ kredit, tahminan 3 ECTS kredit ball “Marketing asoslari” fani uchun tegishli bo'ladi.

O'RTACHA QIYMAT TUSHUNCHASI - GPA (Grade Point Average) GPA (Grade Point Average) — ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi: K — fanga ajratilgan sinov birliklari miqdori; U — fan bo'yicha to'plangan ball.

Masalan, talaba quyidagicha baholari mavjud:

1) 3 kreditli fandan 55 ball olgan,

2) 2 kreditli fandan 90 ball olgan,

3) 4 kreditli fandan 60 ball olgan desak: $(3 \times 55) + (2 \times 90) + (4 \times 60) = 315 + 180 + 240 = 735$ 735 / 9 (100ning 84 foizi).

4) Talaba GPAsi 4 bahoga teng.

5) Taklif etilayotgan O'zbekiston tizimi Rossiya tizimi (MDU)*

6) Evropa kredit transfer tizimi

7) (ECTS — European Credit Transfer System)

8) Amerika tizimi (A- F)

9) Britaniya tizimi (%)

10) Yaponiya tizimi (%)

11) Koreya tizimi (%)

12) O'zbekiston tizimi (%)

13) «5» «5» «A» «A+» 70 — 100 80 — 100

14) 90 — 100 90 — 100 «A» «A-»

15) 65 — 69 «4» «4» «B»

16) «B+» 60 — 64 70 — 79

17) 80 — 89 70 — 89,9 «C»

«B» 50 — 59 «B-» «3

» «3» «D» «C+» 45 — 49 60 — 69 70 — 79

60 — 69,9 «E» «C» 40 — 44 «C-» «D+» 60 — 69 «D»

«D-» «2» «2» «FX

«F» 0 — 39 0 — 59 0 — 59 0 — 59,9 «F»

Ushbu monografiya Oliy ta'lim muassasalarining matematika va informatika yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarining kredit-modul tizimida mustaqil ta'limini tashkil etishda foydalanish uchun ishlab chiqilgan. Monografiyada talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish, ularning turlari, xususiyatlari ochib berilgan. monografiyada mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Metodik tavsiyalar o'z ichiga: talabalarning mustaqil ishlarining turlari va shakllarini, mustaqil ishlarni tashkil etish va bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni, mustaqil ta'limni nazorat qilishni va baholash mezonlari haqida ma'lumotlarni qamrab oladi. Mazkur monografiya pedagogika OTMlari kunduzgi, kechki, sirtqi shaklda matematika va informatika ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim berayotgan o'qituvchi va ta'lim olayotgan talabalariga mo'ljallangan.

OTM sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. Shu maqsadda kirish Oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri bu malakali, moslashuvchan, raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash bo'lib, u turli xil, tez o'zgaruvchan ta'lim sharoitida o'z maqsadlariga erishish uchun professional muammolarning mustaqil hal qilish usullarini o'zlashtirishi zarur. Zamonaviy oliy ta'lim muassasasi o'z o'quv jarayonini talabalarning shaxsiy mustaqilligi va shaxsning bilim va faoliyat sohalaridagi faoliyati bilan mumkin bo'lgan mustaqil tayyorgarlikning yuqori ulushiga asoslangan holda quradi. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"dagi PF-5847-son Farmonida hamda oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv

rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan[1,2].

Shuningdek, mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalariga kredit-modul tizimi joriy qilindi. Ushbu tizim mamlakatimiz uchun yangi ta'lim tizimi hisoblanib, unda an'anaviy ta'limdan ko'ra ko'proq talabalarning mustaqil ta'lim olishlariga e'tibor qaratilgan. Zamonaviy talablar odatdagi o'quv strategiyasini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Talabalarni bilim olish uchun ichki motivlarni rivojlantirishga, ularning amaliy faoliyatini nazariy tushunish darajasini oshirishga undaydigan o'quv vositalariga o'tishdan boshlanadi. Fundamental bilimlarning ahamiyati oshadi, individuallashtirishga tomon kuchayadi, talabalarning mustaqil ishi hajmi oshadi, o'qituvchi boshchiligidagi o'quv faoliyatidan mustaqil darslarga o'tish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy o'quv yurtlarining pedagogik jamoalari, shu jumladan pedagogik OTMlarning matematika va informatika yo'nalishlari oldida quyidagi muammolar yuzaga keladi:

- ☐ ta'lim maqsadlarini tushuntirish;
- ☐ talabalar oldida o'quv maqsadlarini belgilash;
- ☐ talabalarda ijobiy munosabat va mustaqil ishlashga qiziqishni rag'batlantirish;
- ☐ talabalarning tayyorgarlik darajasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- ☐ mustaqil ish uchun vazifalarni tabaqalashtirish.

Talabalarning faolligini oshirish bilan bog'liq mustaqil ishlarini tashkil etishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Birinchidan, ular ko'pchilik talabalar va o'qituvchilarning bunday ishlarga ham professional, ham psixologik jihatdan tayyor emasligi bilan bog'liq (ko'p darajali, ko'p tarmoqli va boshqalar). Talabalarning mustaqil ishini (TMI) tashkil etishga yondashuvlarning uzluksizligi va birligining yo'qligi turli fanlar o'qituvchilarining bir-biri bilan, o'qituvchilar va talabalarning, nihoyat talabalarning bir-biri bilan o'zaro ta'sirining yetarli emasligi bilan bog'liq. O'quv jarayonini ta'minlashning mavjud moddiy-texnik shartlari mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun yetarli emas. Mustaqil ishlarni tashkil etish jarayoni, mustaqil o'quv faoliyatiga o'tish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda, birinchi navbatda, talabalarda o'rganilgan bilimlarning mazmuniga qiziqishni shakllantirish muhimdir. Bunday qiziqishsiz nafaqat o'quv vazifasini mustaqil ravishda belgilash, balki o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifani qabul qilish ham mumkin emas. Shu sababli, talabalarni mustaqil o'quv faoliyatiga tayyorlashga qaratilgan mashg'ulotlar, birinchi navbatda, bunday manfaatlarining

